



JALOLIDDIN MANGUBERDI – BUYUK SARKARDA

TMC instituti, **Allabergenov Nurbek**

«Buyuk tarixda xech narsa izsiz ketmaydi.

U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi»

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya:

Ushbu ishda XII–XIII asrlar Movarounnahr va Xuroson hududidagi siyosiy va madaniy vaziyat hamda buyuk qahramon Jaloliddin Manguberdi faoliyati tahlil qilinadi. Jaloliddin Manguberdi Mo‘g‘ul bosqinlariga qarshi so‘nggi nafasigacha kurashgan buyuk davlat arbobi sifatida ta’riflanadi. U o‘z hukmronligining qisqa, ammo murakkab davrida mamlakat hududini kengaytirgan va Xorazmshohlar davlatining mustahkamligini ta’minlashga harakat qilgan. Shixobiddin an-Nasaviy va boshqa tarixiy manbalarga ko‘ra, Jaloliddin adolatli, haqqo‘y va mas’uliyatli hukmdor bo‘lib, xalq farovonligini birinchi o‘ringa qo‘ygan. Uning jasorati, dono siyosati va adolatparvarligi xalq xotirasida chuqur iz qoldirgan. Ishda Jaloliddinning tarixiy roli, shuningdek, Xorazmshohlar davlati va Chingizxon bosqinlari kontekstida baholangan, bu esa uning Markaziy Osiyo va jahon tarixidagi ahamiyatini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, Xorazmshohlar davlati, mo‘g‘ul bosqinlari, Markaziy Osiyo, XII–XIII asrlar, siyosiy tarix, madaniy tarix, boshqaruv, tarixiy meros

Annotation:

This study analyzes the political and cultural situation in the regions of Transoxiana and Khorasan during the 12th–13th centuries, as well as the



activities of the great hero Jalal al-Din Manguberdi. Jalal al-Din Manguberdi is described as a remarkable statesman who fought against the Mongol invasions until his last breath. During his short but challenging reign, he expanded the country's territory and sought to strengthen the Khwarazmshah state. According to Shihab al-Din al-Nasawi and other historical sources, Jalal al-Din was a just, fair, and responsible ruler who prioritized the welfare of his people. His bravery, wise policies, and commitment to justice left a profound mark in the collective memory of the nation. The study also evaluates Jalal al-Din's historical role in the context of the Khwarazmshah state and the Mongol invasions, highlighting his significance in the history of Central Asia and the world.

Key words: Jalal al-Din Manguberdi, Khwarazmshah State, Mongol Invasions, Central Asia, 12th–13th Centuries, Political History, Cultural History, Governance, Historical Legacy

Tarix ne-ne buyuk jahongirlarni, dovyurak vatan qahramonlarini ko'rdi. Ular o'z vatanlarini asrash uchun jonini tikdilar. Jonlarini ayamadan kurashdilar va tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirdilar. Ana shunday buyuk qahramonlardan biri ajdodimiz, shavqatsiz mog'ul bosqinchilariga qarshi so'nggi nafasigacha kurashgan Jaloliddin Manguberdidir. O'z hukumronligining o'n yili davomida mog'ul bosqinchilariga tinchlik bermagan Jaloliddin Manguberdi vatanimiz tarixida, nafaqat vatanimiz balki butun dunyo tarixida vatani uchun kurashgan buyuk qahramon sifatida nom qoldirdi.

XII-XIII asr boshlarida butun Movorounnahr va Xurosonda buyuk Xorazmshohlar davlati vujudga keldi va ravnaq topdi. Qisqa muddat ichida Anushteginiylar sulolasiga mansub Xorazmshoh hukumdorlar Xorazmni yirik imperiyaga aylantirdilar hunarmandchilik, savdo, me'morchilik, san'at rivoj topdi, xalq farovon hayot kechira boshladi. Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus

tarixi» kitobida shunday keltiriladi: «Mo'tabar tarixlarda bitilgan va zikr etilmishkim sulton Muhammad Xorazmshoh zamonida Movorounnahr mamlakati istilo qilindi. Eron va Turon davlati bag'oyat osoyishtilikda va solim edi. Chunonchi, agar ko'zi ojiz kampir qizil oltin to'la tashtni boshiga qo'yib Mashriqdan Mag'ribga jo'naydigan bo'lsa biror jonzot unga daxl qilmagan. Shox shu darajada (kuchaydiki), mamlakatida birorta xam o'gri qolmadi.»¹ Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak o'sha davrda mamlakat juda tinch va farovon bo'lgan. Ayniqsa Xorazmshoh Takash va o'g'li Alovuddin Muhammad hukmronligi davrlarida mamlakat hududi kengaya bordi. Ammo aynan shu davrda Sharqda mo'g'ul qabilalarini birlashtirgan Chingizxon yirik davlat barpo qilib, Xorazmshohlar davlatiga yaqinlasha boshladi. Taqdir taqazosi bilan ikki davlat o'rtasida urush kelib chiqdi va birin-ketin Alovuddin Muhammad Xorazmshoh taktik xatosi va uzoqni ko'ra olmaganligi natijasida mamlakat yerlari Chingiz qo'lga o'ta boshladi. Ana shunday qiyin davrda butun mas'uliyatni sultonning katta o'g'li Jaloliddin bo'yniga oldi. Shixobiddin

an-Nasaviy ma'lumotlariga qaraganda «Jaloliddin bug'doyrang, o'rta bo'ylik, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi. U sherlar orasida eng zo'r sher edi. U yuvvosh, muloyim odam edi, jaxldor emasdi, haqoratomuz so'zlarni aytmadi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmas edi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi. U xaqgo'ylikni, adolatni ulug'lar edi».² Sal kam o'n yil (1224-1231), Jaloliddin xizmatida bo'lgan Nasaviy uni xaqqoniy tasvirlagan. Uning bosiqqligi, haqgo'yligi, adolatni ulug'lashlari haqiqiy hukmdorlarga xos bo'lgan sifatlardir.

Jaloliddin siyosat maydoniga yosh kirib kelishiga qaramasdan fikri-o'yi, mulohazasi bilan boshqa arkoni-davlatdan ajralib turardi. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak «To'rt ulus tarixi» asarida keltirilishicha Sulton

¹ Mirzo Ulug'bek, «To'rt ulus tarixi», Toshkent, «Cho'lpon», 1994-y, 125-bet

² Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy, «Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mangburni», Toshkent, «O'zbekiston» - «Yozuvchi», 1999-y, 422-bet

Muhammad mo'g'ullar bilan dastlabki to'qnashuvdan keyin ancha xavotirga tushib qoladi va amaldorlari bilan maslaxat quradi, bir-necha takliflar eshitaladi. Sultonga berilgan takliflar orasida markaziy hududlardan Iroq tomon ketish taklifi xam bor edi. Bu sultonga ma'qul kelgan bir vaziyatda Jaloliddin otasi ra'yini inkor etib, shunday deydi: «Agar sulton Iroqqa ketadigan bo'lsa, lashkarlarini menga qoldirsin. Men esa Jayhun daryosi bo'yida turgum. Daryoning u tomonini mo'g'ullar egallaydigan bo'lsa, bu tomonga o'tkazmagayman, mone'lik qilurmen, eng tog'ri yo'l shu»³ deya dadillik va ishonch bilan gapiradi. Yigirma yoshlardan endigina o'tgan yosh Jaloliddinning bu harakatining o'zi katta qahramonlik edi. U hechqachon mo'g'ullarning yovuz lashkaridan cho'chimagan. Yuqoridagi ma'lumotlar esa fikrimizning isbotidir.

Jaloliddin Manguberdi chinakam xalqqa bo'lgan mexr bilan yashagan buyuk tarixiy qahramondir. Buni biz quyidagi jumalardan angla olishimiz qiyin emas. Sulton Muhammad Iroqqa ketishni ixtiyor etganda Jaloliddin otasidan mo'g'ullarga qarshi jang qilishga ruxsat so'rab shunday deydi: «Baxtsizlik yuz bergan taqdirda xech bo'lmaganda, xalqlar bizlarni la'natlarga ko'mib, biz ulardan faqatgina soliqlar olmaganimizni va xavf tug'ilgan paytda mo'g'ullar g'azabiga duchor qilganimizni ta'na qila olmaydilar»⁴. Bu gaplardan ma'lum bo'ladiki, Jaloliddin haqiqiy hukmdor burchini yaxshi va to'g'ri his qilgan inson edi. Xalqning oldida hukmdorning mas'ul ekanini sultonga anglatishga harakat qiladi. Xalqning boshiga tashvish kelganda uni himoyasiz qoldirish to'g'ri yo'l emasligini ro'yi rost aytishing o'zi xalqqa bo'lgan cheksiz muhabbatining dalilidir.

Hukmronligining dastlabki davrlaridan to oxirigacha mo'g'ul istibdodiga qarshi kurashgan buyuk sarkarda yurtini, xalqini bandi qilganlar bilan hech murosa qilmadi, hech bir dushman bilan kelishmadi, faqat va faqat jonajon diyorini zulmdan ozod qilish yo'lida borini berdi. Sheryurak

³ Mirzo Ulug'bek, «To'rt ulus tarixi», Toshkent, «Cho'lpon», 1994-y, 136-bet

⁴ M.Ivanin, «Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur», «Fan», 1994-y, 56-bet



Jaloliddinning shiddatli janglari, g'alabalari mo'g'ul qo'shinining yengilmasligi haqidagi afsona va mish-mishlarni yo'qqa chiqardi. Bir emas ko'plab janglarda shafqatsiz mo'g'ul qo'shinini ma'glub etdi. Hatto shu darajaga yetdiki, mo'g'ullar Jaloliddin nomini eshitsa dahshatga tushardilar.

Jaloliddinning mardligi va jasurligiga, vataniga bo'lgan sadoqatiga hatto dushmanlari ham tan bergan. Sind daryosi bo'yidagi bo'lgan jangda Jaloliddinning qahramonligiga lol qolgan Chingizxon haqida «To'rt ulus tarixi» asarida shunday keltiriladi: «Otadan dunyoda hali bunday o'g'il tug'ilmagan. U sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda esa nahang kabi botir. Qanday qilsinki, hali hechkim taqdir bilan, hech bir mojaroda teng kelolmagan. Lekin u mardlikning dodini berdi. Qazoyi qadar qarshisida qudrat qo'lini ochdi. Mardlik bilan undan qutulib bo'lmaydi. Nima qilsin-qilmasin bu ulug' xudo ishidir»⁵. Bundan ko'rish mumkinki, o'sha buyuk mo'g'ul xoni Chingizxon ham mard ajdodimiz jasurligini tan oladi. Hatto o'g'illariga Jaloliddin bobomizni namuna qilib shunday deydi: «Otaga shunday o'g'il zarurki, u ikki girdob - olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oldi»⁶. Bu so'zlar shuni ko'rsatadiki, dushmanlari ham uning vataniga sadoqati va mardonavor harakatlaridan lol qoladi.

Mustaqilligimizning sharofati bilan vatanimizning buyuk o'g'loni Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtirish uchun ko'plab ishlar amalga oshirildi. Bobomizning Urganchda katta haykali o'rnatildi. 1998-yili 29-sentabrda «Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash to'g'risida» Vazirlar Mahkamasining 408-son qarori qabul qilindi⁷. 1999-yil esa tantanali tarzda nishonlandi. 2000-yil 30-avgustda «Jaloliddin Manguberdi» ordeni ta'sis etildi. Bu orden bilan vatan oldidagi xizmatlari uchun mard o'g'lonlar taqdirlana boshlandi.

⁵ Mirzo Ulug'bek, «To'rt ulus tarixi», Toshkent, «Cho'lpon», 1994-y, 183-184-betlar

⁶ Mirzo Ulug'bek, «To'rt ulus tarixi», Toshkent, «Cho'lpon», 1994-y, 184-bet

⁷ Lex.uz, Vazirlar Mahkamasining 408-son qarori.



Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, buyuk sarkarda, davlat arbobi, vatan qahramoni Jaloliddin Manguberdi barchamiz uchun mardlik va vatanparvarlik ramzidir. Biz yoshlar buyuk bobolarimizga munosib avlod bo'lishimiz shart va zarurdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Mirzo Ulug'bek, «To'rt ulus tarixi», Toshkent, «Cho'lpon», 1994.
2. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy, «Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mangburni», Toshkent, «O'zbekiston» - «Yozuvchi», 1999.
3. M.Ivanin, «Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur», «Fan», 1994
4. Lex.uz, Vazirlar Mahkamasining 408-son qarori

